

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING OILADAGI AVLODLARARO MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI

Mamarayemova Gulajahon Farhodovna

“Oila va xotin – qizlar” ilmiy tadqiqot
instituti doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola milliy va umuminsoniy qadryatlarning axloqiy, tarbiyaviy ahamiyati va oiladagi avlodlararo munosabatlarda tutgan o‘rni yoritiladi. Milliy va umuminsoniy qadryatlarning oila mustahkamligi va farovonligidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining poydevoridir.

Kalit so‘zlar: milliy qadryat, tarbiya, ma’naviy, jamiyat, millat, urf-odat, an’ana, yosh avlod, keksalik.

Har bir millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko‘rsatib turuvchi o‘ziga xos qadriyatlari mavjud bo‘lib, olimlar qadriyatlarni milliy, diniy, mahalliy, mintaqaviy va umuminsoniy kabi bir qator turlarga shartli bo‘ladilar. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko‘plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar davomida takomillashib boraveradi. Bugungi rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalar asri sharoitida milliy, moddiy va ma’naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, keyingi avlodga boyitib yetkazayotgan har qanday millat o‘ziga xos an’analari, urf-odatlar va o‘lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Bizga ma’lumki, millatlarning bebaho qadryatlari bugun yoki kecha paydo bo‘lmagan bir necha asrlar davomida sayqallanib avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bir vaqtlar xalqning qalbidan chuqur joy olgan urf – odatlar, kundalik hayot tarziga xos an’analar qadryatlarga aylanishi uchun uzoq davrlar davomida avlodlar sinovidan muvaffaqiyatli o‘tib, rivolanib, xalq hayotida o‘z o‘rnini egallagan. Jamiyat tarixi turli taraqqiyot bosqichlaridan o‘tib, bu davrlarda qadryatlar insoniyat dunyoqarashiga qarab takomillashib, boyib borgan va ba’zilar eskirib yo‘qolgan, ba’zi qadryatlar esa yangidan shakllanib o‘zgarib turgan.

Insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyoti bir tekis kechmagan. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-tarixiy hodisalarga turlicha munosabatda yondashish natijasida insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, mentaliteti shakllanishi barobarida, milliy qadriyatlar ham takomillasha borgan. Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlar, tarixi, madaniyati, an’analarini, barcha moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shuning uchun ham qadriyatlar millatlarning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi.¹ Mutafakkirlarimiz qadryatlarni millat ma'naviyatining ko'zgusi deb bejizga aytishmagan. Zamonlar osha sayqallangan qadryatlar insonlarni tinchlik – totuvlikka, mehr – oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan ulkan ma'naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadryatlarni xalqning kundalik hayotida, ongu shuurida, muloqotida, har tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi.

Qadriyatlar - jamiyat taraqqiyoti asosiy omillaridan hisoblanadi. Xo'sh, qadriyatlar tushunchasi, uning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat? Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlaning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonida baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim². Qadryatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo'linadi va inson hayotining barcha javhalarini qamrab oladi. Jumladan, inson va inson hayoti eng oliy qadryat bo'lib, inson yo'q joyda hech bir narsaning qadr – qiymati bo'lmaydi. Bunday kelib chiqadiki, qadriyatlar inson hayotini go'zallashtirishga, turmush tarzini yaxshilashga, hayotini himoya qilishga, sog'ligini mustahamlashga, ma'naviyatini rivojlantirishga, umrini mazmunli o'tishiga xizmat qiladi. Inson va inson hayoti uchun esa, eng oliy qadryat oila hisoblanadi. Oilaning eng asosiy vazifasi avlodlar davomiyligini ta'minlash, ajdodlardan qolgan muqaddas urf-odatlarimizni, kelajak avlodlarga yetkazishdir. Oila mustahkamligi, uning farovonligi insonni baxtli qiladigan eng asosiy omillardan biri, shuningdek xalqi baxtli bo'lgan jamiyat rivojlanadi, taraqqiyot topadi. Jamiyat taraqqiyoti, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlanib, qadrlanib kelgan. Insonning erkinligi, uning shon-shuhrati va qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. O'zbekiston Konstitutsiyasida bu to'g'risida shunday so'zlar yozilgan: "O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi³. Jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan "Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi"ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har bir insonning fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlangan, fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan.

Bekorga jamiyat farovonligini, oila mustahkamligi bilan bog'lamadik, oila jamiyatning ustuni, zero inson tafakkuri, ma'naviyati shakllanadigan maskan oiladir.

¹ <https://zarnews.uz/qadryat-qadri.17.05.2020>.

² J. Tulenov, G. Tulenova, K. Tulenova. Falsafa To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: "Fan va texnologiya", 2016, -287b.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2014, 11-bet.

Tinch – totuv, baxtli, namunali, zamonaviy oilalari ko‘p jamiyat barqaror rivojlanadi. Bunday sog‘lom muhit hukm surayotgan oilalarni shakllanishi, nafaqat oiladagi, balki jamiyatdagi ma‘naviy – axloqiy muhitga borib taqaladi. Oila mustahkamligini ta‘minlaydigan o‘zbek millatiga xos bir qancha go‘zal axloqiy qadryatlarimiz bor. O‘zbek oilalaridagi er – xotin munosabatlarida har doim erning mavqei bir pog‘ona yuqorida bo‘ladi va oila boshlig‘i, oilaning moddiy ta‘minotchisi bo‘lgan otaga, ayoli va farzandlari hurmat – ehtirom ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayol ham oilada e‘zozlanib, o‘z o‘rni, haq-huquqlariga ega. Er – xotinning oiladagi vazifasi farzandlarni faqat moddiy jihatdan ta‘minlash emas, ma‘naviy – axloqiy tarbiya berish ham. Ularni qanday inson bo‘lib yetishi, kelajakda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga ota – onaning tarbiya va e‘tibori katta ta‘sir qiladi.

Oila — tarbiya maskani, aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq – odob qoidalarini ham egallab boradi. Ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlar ona suti, oila a‘zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi¹. Shuningdek, o‘zbek oilalarida yoshi ulug‘ – bobo va buvilarga nisbatan hurmat – ehtirom o‘zgacha bo‘lib, azal – azaldan kattalarga hurmat yoshlar tarbiyasida asosiy omillardan biri bo‘lgan. Yoshi ulug‘ otaxon va onaxonlarni vaqt deya atalmish oliy hakam jismonan zaif qilib qo‘yadi, bu davrda esa farzandlar, nabiralar va atrofidagi yaqinlarining mehr va e‘tiboriga muhtoj bo‘ladi. Jamiyatdagi yoshi ulug‘ insonlarga ehtirom ularga g‘amxo‘r bo‘lish bizning necha ming yillik qadryatlarimizdandir. Keksalarga bo‘lgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik jamiyat ma‘naviyatini yuksakligini ko‘rsatadi. Bayram va hayitlarda keksalarni ziyorat qilish, ularga sovg‘alaru noz – u ne‘matlar ulashish an‘anasi saqlanib qolgan. Aytib o‘tish joizki, farzand tarbiyasida ham bobo – buvilarning o‘rni beqiyosdir, ular kelajak avlod va o‘tmishdagi ajdodlar o‘rtasidagi ma‘naviy boylikni yetkazuvchi ko‘prikdirlar. Xalqimizda qadimdan saqlanib kelayotgan halollik, mehnatsevarlik, sadoqat, mehmondo‘stlik, mehr – oqibat, saxovat, xayolilik kabi axloqiy qadryatlarni ko‘p hollarda bobo va buvilarmizning hikmatli so‘zlari, hikoyalari o‘gitlari orqali eshitamiz. Biz oilaning boshi, ko‘pni ko‘rgan, oqni qoradan ajratadigan, umr so‘qmoqlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxs sifatida, muhim qarorlar qabul qilishda bobo – buvilarmizning maslahat va o‘gitlariga tayanamiz.

O‘zbek oilalarida qaynona kelin munosabatlaridagi o‘ziga xos qadryat va an‘anaga aylangan jihatlar borki, oilalarning tinch va farovonligiga katta hissa qo‘shadi. Bizning milliy urf – odatlarimizda kelin qaynotasini otadek, qaynonasini

¹ Falsafa asoslari: o‘quv qo‘llanma/ Q. Nazarov[va boshqalar]. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2018. - 302b.

onadek qabul qiladi va o'z ota – onasidek e'zozlab hurmat – ehtirom ko'rsatadi lozim. Ularga g'amxo'rlik qilib, doimo xizmatlarida bo'ladi. Qaynona esa o'z qizidek ko'rib, yangi xonadonga kelgan kelinga yangi muhitga moslashishga ko'mak beradi, bilmagan ro'zg'or yumushlarini o'rgatadi, farzandlar voyaga yetkazish va tarbiya qilishda ko'maklashadi.

Milliy qadryatlarimizdan yana bir ko'zga tashlanadigan mezonlaridan biri oilaviy – qarindoshlik, qo'ni qo'shnicilik munosabatlari, ya'ni jamoa institutlaridir. Sharq kishiisi ularsiz o'zini tasavvur eta olmaydi va ular uning qadriyaviy mezonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bois o'zbek jamiyatida jamoa an'analari, rasm-rusum va urf – odatlari qadrlanib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bular insonning nafaqat ma'naviy- madaniy talablarini qondirishga, balki Sharq jamiyatida insonning sotsial statusini belgilashda ham juda katta ahamiyat kasb etadi¹.

Afsuski, bugungi kunda qariyalarga nisbatan yoshlarning salbiy munosabatlariga guvoh bo'lyapmiz. Ayrim noqobil farzandlar o'z ota – onasi yoki bobo – buvilariga g'amxo'rlik qilish o'rniga, qariyalar uyiga joylashtirishmoqda. Ba'zi hollarda esa farzandlar oila qurgach, oilalari bilan boshqa uyga yoki chet elga ko'chib ketib, parvarishga muhtoj keksaygan ota – onasini yolg'iz qoldirmoqda. Pir-u badavlat yoshi ulug' kishilarga yoshlarning qo'pol, kamsitish holatlariga ham duch kelyapmiz. Ota – onalar va farzandlar o'rtasida turli masalarda komplektlar yuzaga kelyapti. Ayrim farzandlar ota – onaga faqat ijtimoiy ta'minotchi sifatida qaramoqda. Bu salbiy munosabatlarning zamirida yoshlarga ta'sir qilayotgan har xil illatlar, berilgan tarbiyadagi kamchiliklar yotadi. Ayniqsa, milliy qadryatlarimiz va urf-odatlarimiz yoshlarning ongu – shuuriga singimaganligi va mohiyatini anglamaganliklari ushbu nohush hodisalarga sabab bo'lyapti.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimiz shiddat bilan rivojlanib va o'zgarib borishi natijasida, yangidan yangi qadryatlar paydo bo'lib ma'naviy noqulayliklar olib kelyapti, bu asosan avlodlarda axloqiy to'qnashuvlar sodir qilmoqda. Ijtimoiylik va xudbinlik – o'z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun ko'rish ko'paymoqda. Oilalar tinch – totuv, mustahkam bo'lishi uchun, yosh avlodni milliy qadryatlar, milliy g'oya va qarashlar ruhida tarbiyalash, oilasi muqaddas qadryat ekanligini singdirish chora – tadbirlariga e'tibor berish va kuchaytirish lozim.

¹ M. Ahmedova. Falsafa. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2006. -442b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2014, 11-bet.
2. M. Ahmedova. Falsafa. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti, 2006. -442b.
3. Falsafa asoslari: o‘quv qo‘llanma/ Q. Nazarov[va boshqalar]. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2018. -302b.
4. J. Tulenov, G. Tulenova, K. Tulenova. Falsafa To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016, -287b.
5. <https://zarnews.uz/qadryat-qadri.17.05.2020>.